



Nilufar TURG'UNOVA,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU tayanch doktranti
E-mail: nilufarturgunova20@gmail.com

Toshkent Amaliy fanlar universiteti dotsentv.b., PhD O.Saidahmedova taqrizi asosida

ASSESSMENT OF EDUCATIONAL PROJECTS

Аннотация

The article analyzes scientific-theoretical views on the assessment of educational projects based on various sources. The opinions of different scholars regarding the evaluation of project work, as well as the proposed assessment criteria, have been examined, highlighting their similarities and differences. Additionally, the article provides methodological recommendations for assessing project work in native language lessons and presents developed evaluation criteria.

Key words: Project work, educational-project activity, assessment, formative assessment, summative assessment, assessment criteria.

ОЦЕНИВАНИЯ УЧЕБНЫХ ПРОЕКТОВ

Аннотация

В статье проведен анализ научно-теоретических взглядов из различных источников по оценке учебных проектов. Рассмотрены мнения различных ученых о методах оценки проектной работы, изучены предложенные критерии оценки, выявлены их сходства и различия. Кроме того, в статье представлены методические рекомендации по оценке проектных работ на уроках родного языка, а также приведены разработанные критерии оценки.

Ключевые слова: Проектная работа, учебно-проектная деятельность, оценивание, формативное оценивание, суммативное оценивание, критерии оценивания.

O'QUV LOYIHALARINI BAHOLASH

Аннотация

Maqolada o'quv loyihalarini baholash bo'yicha manbalardagi ilmiy-nazariy qarashlar tahlilga tortilgan. Turli olimlar tomonidan loyiha ishlarini baholashga doir bildirilgan fikrlar, taklif etilgan baholash mezonlari o'rganib chiqilib, ularning o'xshash va farqli jihatlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada ona tili darslarida bajariladigan loyiha ishlarini baholash bo'yicha metodik tavsiyalar berilgan, ishlab chiqilgan baholash mezonlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Loyiha ishi, o'quv-loyihaviy faoliyat, baholash, formativ baholash, summativ baholash, baholash mezonlari.

Kirish. 2022-yil 11-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni e'lon qilindi. Mazkur farmon orqali tasdiqlangan Rivojlanish dasturining asosiy yo'nalishlaridan biri maktab ta'limiga ilg'or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan Milliy o'quv dasturini to'laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish edi [1]. Shunga asosan, 2022-yildan boshlab maktab ta'limida Milliy o'quv dasturi joriy etildi va MO'D asosida 6-,7-,10-sinf "Ona tili" darsliklari yaratildi. 2024-yilda esa yangilangan 5-sinf "Ona tili" darsligi nashrdan chiqarildi. Mazkur darsliklarning barchasi o'zida til o'qitishning zamonaviy yondashuvlarini aks ettirgani bilan avvalgi darsliklardan farq qiladi. Shuningdek, yangilangan darsliklarning har biriga loyiha ishlari kiritildi va bu ona tilini o'qitishda kommunikativ yondashuvning amal qilishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Loyihaga asoslangan ta'limning nazariy-metodik asoslari o'tgan asrdayoq ishlab chiqilgan bo'lsa-da, bizning ta'lim tizimimizga o'qitishning bu usuli yangilik sifatida kirib keldi. Ayniqsa, uzoq davrlar mobaynida grammatik yondashuv hukmron bo'lgan ona tili ta'limi darsliklarda aks etgan loyiha topshiriqlari bilan qaytadan jonlandi. Ona tili darsliklariga nazar tashlaydigan bo'lsak, loyiha ishlariga ko'proq o'rin ajratilayotganligi va takomillashtirib borilayotganligini guvohi bo'lamiz.

Ta'kidlab o'tilganidek, loyihaga asoslangan ta'lim milliy metodikamizda yetarlicha tadqiq qilinmagan. Xususan, loyiha ishlarini baholash tartibi o'rganilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolardan biri sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ma'lumki baholash ikki xil ko'rinishda amalga oshiriladi: formativ va summativ. Formativ baholash ta'lim berish davomida o'rganuvchilarning o'zlashtirishini baholab borishni nazarda tutsa, summativ baholash ta'lim jarayonining ma'lum bir bosqichida o'tkazilib,

o'rganuvchilarning erishgan natijalarini yakuniy baholashni ifodalaydi. Har ikki baholash turi o'z maqsadi, o'tkazilish shakllariga ko'ra bir-biridan farqlanadi. O'quv loyihalarini baholashda ham formativ, ham summativ baholashga murojaat qilinadi. Adabiyotlarda, asosan, loyiha ishlarini summativ, ya'ni yakuniy baholash haqida ma'lumotlar keltiriladi. Lekin loyihaga asoslangan ta'limda faqatgina ishning natijasi emas, balki taqdimotgacha bo'lgan jarayon ham muhim ahamiyatga egaligini unutmaslik lozim. Ma'lumki, summativ baholash loyiha yakunida o'tkazilishi tufayli, unda natijalarni belgilangan mezonlar asosida o'lchash, aniq parametrlar yordamida tahlil qilish, qabul qilingan an'anaviy tizimda baholash mumkin va bu baholash jarayonini ancha oson o'tishini ta'minlaydi. Lekin faqatgina ishning natijasiga e'tibor qaratish loyihaviy faoliyatning asosiy maqsadini unutib qo'yishga, o'quvchilar o'rtasida norozilik kelib chiqishiga, baholash jarayonining adolatsiz bo'lishiga olib kelishi mumkin.

O'quv loyihaviy faoliyatda formativ (shakllantiruvchi) baholash o'quvchilarning loyihani bajarish davomidagi faoliyatini, jamoadagi vazifasini kuzatish, tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

Baholashning bu turi o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish, motivatsiya berishda muhim sanalib, ularga loyihaviy faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'yib olishlariga ko'maklashadi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi qayta aloqani ta'minlaydi. Formativ baholash o'qituvchi, o'quvchining o'zi yoki sinfdoshlari, tengdoshlari tomonidan o'tkazilishi mumkin va u albatta baho/ball ko'rinishida bo'lishi shart emas. Shuningdek, ishtirokchilar va jamoa faoliyatini butun loyiha davomida kuzatib, baholab borish loyiha ishini yakuniy baholashga juda katta yordam beradi.

Bir qator manbalarda loyihaga asoslangan ta'limda loyiha yakunidan keyingi tahlil, baholash ham muhimligi qayd etilgan. O'quvchilar o'z-o'zini baholab, tahlil qilib borishlari uch bosqichda amalga oshirilishi mumkin [3]:

Harakat davomida (in-action) – loyiha bajarish jarayonida amalga oshiriladigan tahlil.

Harakatdan keyin (on-action) – bajarilgan ish bo'yicha tahlil.

Kelajakdagi harakat uchun (for-action) – kelgusidagi loyihalarni yanada yaxshiroq bajarish uchun o'tkaziladigan tahlil.

O'quv loyihalarini baholash murakkab va ko'p tizimli jarayon bo'lib, baholashda loyihaning turi (faoliyat mazmuniga ko'ra, ishtirokchilar soniga ko'ra, murakkabligi, davomiylikiga ko'ra turlari) hisobga olinishi lozim. Shunga asosan, loyihaga asoslangan ta'limda umumiy va har bir loyihaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda xususiy baholash mezonlaridan foydalanish mumkin.

Quyida loyiha ishlarini yakuniy baholash bo'yicha turli olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar va tavsiya etilgan mezonlarni ko'rib chiqamiz:

1-bosqich	Vazifalar va natijalarni oldindan aniq belgilab olish	Loyiha boshida natija talablarini belgilab olish yakunda loyiha ishini to'g'ri baholashni ta'minlovchi omildir.
2-bosqich	Jarayon davomidagi doimiy tekshiruvlar va baholash	Bunda loyiha kundaligini yuritish va har bir ishtirokchi bajarayotgan vazifani yozib boorish mumkin.
3-bosqich	Yakuniy natijani baholash	Bunda mazmun, taqdimot sifati va usuli, tushunarliklik, yangi bilimlar hajmi, foydalilik, qiziqarlik kabi mezonlarni asos qilib olish mumkin.
4-bosqich	O'z-o'zini baholash	Loyiha yakunidan so'ng, ichki guruh baholashi shaklida o'tkaziladi.

Maktab ta'limida loyihaviy faoliyatni tashkil etish bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan olimlar I.Nadtochiy o'z tadqiqot ishida loyihalarni baholashning umumiy parametrlarini sanab o'tadi hamda baholash jarayonida quyidagi kompetensiyalarning qay darajada shakllanganligini hisobga olish lozimligini qayd etadi: muammolarni hal qilish kompetensiyasi, kommunikativ kompetensiya, axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi. Olimning fikriga ko'ra, loyiha texnologiyasidagi eng muhim bosqich loyiha ishining taqdimoti hisoblanadi va bu bosqichning sifati yakuniy baholashga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun loyiha ishini himoya qilish va taqdimot jarayoniga puxta tayyorgarlik ko'rish zarur [6:19].

Ma'lumki, loyihalarni baholash mezonlari qaysi fan doirasida bajarilganligiga qarab o'zgarishi mumkin. Til ta'limida

“Loyihaga asoslangan ta'limda baholash” nomli maqolada baholashda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan omillar sifatida quyidagilar sanab o'tilgan [4]:

– Mazmunni o'zlashtirish (o'quvchilar mavzuni qanchalik yaxshi tushunib yetganliklari).

– Hamkorlik va ishtirok (o'quvchilarning jamoa ichida qanchalik samarali ishlaganligi).

– Taqdimot va uslub (o'quvchilar o'z ishlarini qanchalik yaxshi taqdim eta olganligi).

– Muddatlarga rioya qilish (loyiha belgilangan vaqtda yakunlangani yoki yo'qligi).

– Loyihaga bog'liq qo'shimcha elementlar (loyiha mavzusiga xos maxsus talablar).

Muallif loyiha ishlarini baholashni quyidagi bosqichlarda tashkil etish samarali deb hisoblaydi:

loyihalar bilan ishlash va ularni baholash bo'yicha xorijiy olimlar, mutaxassislar tomonidan bir qator ishlar e'lon qilingan. Mazkur ishlarning ko'pchiligi ikkinchi til, chet tilini o'qitish metodikasiga tegishli. Ona tilini o'qitishda loyihalar bilan ishlash hamda ularni baholash bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlari juda kam. Rossiyalik olim M.V.Yakushev “Chet tili ta'limida loyihaviy faoliyat natijalarini baholash metodologiyasi va metodikasi” nomli maqolasida o'quv loyihalarini baholashning umumiy mezonlari orasiga xorijiy tildagi kommunikativ kompetensiyaning namoyon bo'lishi talabini ham kiritadi va til o'rganishda kommunikativ kompetensiyaning muhimligini ta'kidlab o'tadi. Muallif loyihalarni quyidagi aspektlar bo'yicha baholashni taklif etadi [7]:

Aspekt	Parametrlar
Mazmuniy aspekt	Muammoning dolzarbligi
	Loyiha mavzusini to'liq va chuqur yondashgan holda ochib berish
	Mazmunning konseptualligi
Interaktiv aspekt	Ifodaviylik va san'atkorlik
	Loyiha ishtirokchilarining o'zaro hamkorligi
	Tinglovchilar bilan o'zaro aloqa
Ijodiy aspekt	Original yondashuv
	O'z-o'zini boshqarish va mustaqil fikrlash
	Taqdimot vositalaridan keng ko'lamda foydalanish
Axborot texnologiyalari aspekti	Optimal shakl
	Muammoning ijtimoiy-madaniy ahamiyati
	Auditoriyaga ta'sir qilish
Tadqiqot aspekti	Metodologik yetuklik
	Funksional savodxonlik
	Loyiha ishtirokchilarining shaxsiy manfaatdorligi va motivatsiyasi
Baholash va tanqidiy tahlil aspekti	Refleksiya qobiliyati
	Kommunikativ kompetensiya elementlari

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolaning maqsadi o'quv loyihalarini baholash jarayonini tahlil va talqin qilish, mavjud adabiyotlardagi qarashlarni o'rganish ekanligidan kelib chiqqan holda tadqiqot jarayonida, asosan empirik ma'lumotlarga asoslangan yondashuv qo'llanildi. Maqola uchun ma'lumotlarni to'plash jarayonida anketa-so'rovnoma, kuzatish, suhbat, hujjatlarini o'rganish metodlaridan foydalanildi. Ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida esa analiz, sintez, taqqoslash metodlariga murojaat qilindi. Tadqiqot jarayonida obyektivlikni saqlash uchun metodik tamoyillarga amal qilindi.

Tahlil va natijalar. Yuqorida ko'rib chiqilgan tahlillardan ma'lum bo'ladiki, adabiyotlarda o'quv loyihalarini

baholashning turli shakllari taklif etilsa-da, lekin ularning hammasida umumiy va asos bo'lib xizmat qiluvchi mezonlar takrorlanadi. Loyiha ishi qaysi fan doirasida bajarilayotganiga qarab u yoki bu mezon birinchi darajaga ko'tarilishi, yoki qo'shimcha talablar kiritilishi mumkin. Xususan, ona tili ta'limiga oid bo'lgan loyiha ishlarini baholashda asosiy e'tibor o'quvchilarning til bilimlarini amaliyotda qay darajada namoyon qila olganliklari, og'zaki va yozma savodxonliklari, ularning kommunikativ kompetensiyaning shakllanganligiga qaratiladi. Quyida ona tili darslarida bajariladigan o'quv loyihalarini baholash bo'yicha mezonlar taklif etilgan:

Mazmun	Loyiha ishini belgilangan maqsad asosida to'g'ri bajarish, topshiriq shartiga mos kelishi Loyiha mavzusini chuqur o'rganish va batafsil yoritish
Til va uslub	Loyihadagi matnlarda til birliklardan to'g'ri foydalanish Matnlarda mazmundorlik, mantiqiylik, ifodaviylik, uslubiy ravonlikka amal qilish Jumlalarning grammatik jihatdan to'g'ri tuzilganligi; imloviy, ishoraviy, uslubiy xatoliklarga yo'l qo'yilmaganligi
Ijodiylik	Loyiha ishini bajarishga ijodkorlik bilan yondashish O'quvchi kreativligining namoyon bo'lishi
Tadqiqotchilik	Tadqiqotchilik faoliyatini yo'lga qo'yish: turli manba va axborotlar bilan ishlash, ularni saralash Foydalanilgan ma'lumotlarning manbasini ko'rsatish
Dizayn	Loyiha ishining dizyniga original yondashuv Ishning vizual jihatdan jozibadorligi (turli grafika, rasm, jadvallardan o'rinni foydalanish)
Taqdimot	Loyiha ishining taqdimotida belgilangan vaqt chegarasiga amal qilgan holda ishning asosiy jihatlarini ochib bera olish; Taqdimot jarayonida og'zaki nutqning ravon va ifodaliligi, til vositalaridan o'rinni foydalanish.
Jamoadi ishlash	Jamoadi ishini to'g'ri tashkil etish, vazifalarni taqsimlash; Guruh a'zolarining o'zaro hamkorlikda ishlashlari

Keltirilgan baholash mezonlari loyiha ishining turidan kelib chiqqan holda o'zgartirilishi, qo'shimcha talablar kiritilishi mumkin. Masalan, devoriy gazeta, bukletlar, posterlar tayyorlashni ko'zda tutuvchi loyihalarda ishning originalligi, dizayni, grafik elementlar bilan boyligi kabi talablar asosiy planga ko'tarilsa, matn bilan ishlashga (matn yaratish, tahlil, tahrir qilish) qaratilgan loyihalarda til va uslub parametrlari bo'yicha kattaroq ball ajratilishi mumkin. Shu bilan bir qatorda, loyihaviy faoliyatni baholashda loyihaning individual yoki jamoaviy ekanligiga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Ma'lumki, jamoaviy ishlarni baholash ancha murakkabroq kechadi, chunki bunda guruhdagi har bir ishtirokchining roli, vazifalarni qay darajada bajarganligi, o'quvchilar o'rtasida hamkorlikning yo'lga qo'yilganligini aniqlash lozim. Jamoalarni yakuniy baholash xolis va adolatli bo'lishi uchun yuqorida ta'kidlangandek, loyihani bajarish davomidagi nazorat va shakllantiruvchi baholash ishlarini muntazam amalga oshirib turish lozim.

Loyiha ishining birinchi bosqichida baholash mezonlari ularga ajratilgan ballar bilan birgalikda o'quvchilarga taqdim etilsa, ularga ishini to'g'ri tashkil etish, loyiha ishi natijasini oldindan belgilab olishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, baholash murakkab va ko'p tizimli jarayon bo'lib uning natijalari o'quvchining o'zlashtirishiga, keyingi faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. To'g'ri olib borilgan baholash o'quv jarayonini samarali tashkil etishga, maqsad-vazifalarni aniq belgilab olishga yordam beradi. Shuningdek, baho o'quvchilarni rag'batlantiruvchi, ularga motivatsiya beruvchi eng katta omillardan biridir.

O'quvchilarning o'quv-loyihaviy faoliyatini hamda loyiha natijasini baholash bo'yicha xorijiy adabiyotlarda, tadqiqot ishlarida turli qarashlar bildirilgan. Loyiha ishlarini baholash oldindan belgilangan mezonlar asosida bir necha bosqichlarda tashkil etiladi. Bunda ham formativ, ham summativ baholashning birdek ahamiyatga ega ekanligini unutmaslik lozim.

Ona tili darslarida bajarilgan o'quv loyihalarini baholashda, asosan, o'quvchilarda og'zaki, yozma nutq ko'nikmalarining, kommunikativ kompetensiyaning qay darajada shakllanganligiga, loyiha ishlarida til birliklaridan to'g'ri, unumli foydalanilganligiga va boshqa til o'rganish bilan bog'liq jihatlarga e'tibor qaratiladi. Ona tilini o'qitishda o'quv loyihalarini bilan ishlashning pedagogik-psixologik asoslarini o'rganish, loyiha ishlarini baholash mezonlarini ishlab chiqish tadqiqotimizning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022 – 2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-6008663>
2. Jalilov, K. Baholash nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 256 b.
3. Warren, A.M. (2016). Project-Based Learning Across the Disciplines: Plan, Manage, and Assess Through +1 Pedagogy. Thousand Oaks, CA: Corwin Publishing.
4. Kovácsné Pusztai, K. (2021). Evaluation of Project-Based Learning. Acta Didactica Napocensia, 14(1). P. 64-75.
5. Phyllis, Blumberg. (2005). Assessing Students During the Problem-Based Learning (PBL) process. Medical science educator, vol.15(2). P. 92-99.
6. Надточий И.С. Методика проектной деятельности учащихся лицеев, специализированных в информатике: Автореф. дисс. ... канд.педнаук. Ярославль, 2005. – 24 с.
7. Якушев М.В. (2019). Методология и методика оценки результатов проектной деятельности в иноязычном образовании Ученые записки Орловского государственного университета. №2 (83). С. 355 – 359.